

BOG' VA HIYOBONLARDA O'RNATILGAN HAYKALTAROSHLIK ASARLARI

Asrorov O'tkir Qudratovich

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining
Tasviriy san'at fakulteti "Haykaltaroshlik" kafedrası o'qituvchisi**Biz qat'iy ishonamizki, shahar makonining
estetikasi hayot sifatiga bevosita ta'sir qiladi!*

Annotatsiya: Ushbu maqolada haykaltaroshlikning yorqin namunalarini paydo bo'lishi, bog' va hiyobonlardagi haykallar hiqida so'z boradi. Bezak Haykaltaroshlikga istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va bog'lar, shuningdek, haykaltaroshlikning ko'rinishlari yoritildi.

Kalit so'zlar: haykallar, naqshinkor bezaklar, san'at durdonalari, memoriy inshootlar, badiiy jozibadorlik.

Bugungi kunda O'zbekistonning barcha xududlarida shaxar ko'chalari, bog' va hiyobonlarini bezatib turgan haykaltaroshlik asarlariga ko'zimiz tushad. San'atning tasviriy ifoda turi bo'lgan haykaltaroshlik mustaqillikka erishganimizdan so'ng shaxar markazlarida o'rnatilgan siyosiy man'naviy, milliy mafkuramizni tarannum etuvchi monumental asarlar sifatida maydonga keldi. Xotira maydonida o'rnatilgan "Motamsaro ona" xaykali, Ikkinchi jaxon urushida front orti mexnatkashi, farzandlaridan ayrilgan, sabr va matonat ramzi sifatida g'amgin o'zbek ayoli kompozitsiyasi xamda Mustaqillik maydoni markazida o'rnatilgan yosh va "Baxtiyor ona" xaykali. Ikki ayolning bir xududda bo'lishi, O'zbekistonning "O'tmish va kelajagini bir vaqitda va makonda namoyon etgandek. Yangi umidlari maqsadlarini baxtiyor onaning bag'ridagi go'dak orqali ifoda etilganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy sohalarda, ayniqsa ta'limni isloh qilish borasida misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Oliy Majlisning 1997 yil 29-avgust IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi XXI-asrda O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish borasidagi strategik yo'nalishini belgilab berdi. Bu esa umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb - hunar kollejlari uchun ma'naviy jihatdan ijodkor o'qituvchi-kadrlarni tayyorlashdan iborat. Zero Prezident I.A. Karimov aytganidek, «Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni echish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq».⁴¹

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash, bir necha o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq o'quv predmetlari asosida amalga oshiriladi. Shulardan biri haykaltaroshlik va plastik anatomiyadir. Bulajak mutaxassis o'qituvchi qalamtasvir sohasidagi perspektiva qonun-qoidalari, yorug'-soya nazariyasi, shakllarning konstruktiv tuzilishi va nisbatlari borasida olgan bilimlarini haykaltaroshlikda naqsh bo'laklari shaklini yasash, jarayonida va ko'plab boshqa mavzudagi mashg'ulotlarda mustahkamlaydilar. So'ngra inson qomati haykalini tasvirlash mashg'ulotlari boshlanadi.

⁴¹.A.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston», 1999, 18 bet

Bu esa talabdan bevosita inson plastik anatomiyasi bo'yicha yuqori darajadagi nazariy bilimlarni egallagan bo'lishini taqazo etadi. Haykaltaroshlik san'ati haqida. Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlari borliqdagi hajmga ega bo'lgan barcha shakllar asosida tasvirlanadi. Mayda haykalchalardan tortib, park va hiyobonlarga o'rnatiladigan turli mahobatli haykallar, yodgorliklar, binolarning devorlariga ishlanadigan releflar, tanga, nishon, medal kabilarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlaridir.

Haykaltaroshlik asarlari o'zaro ishlatilish joyi, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qabariq ko'rinishda bo'ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'riladi. Qabariq haykallarni relief deb ataladi. Relief frantsuzcha so'z bo'lib «yuza» degan ma'noni anglatadi.

Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab har xil materiallardan ishlanishi mumkin. Haykaltaroshlik materiallari quyidagilardan iborat: plastilin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatbaho metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llaniladi.⁴²

Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Bunga misol qilib Ona Vatanimizning ko'plab shaharlarida davlat va jamoat arboblari, yozuvchi-shoirlarning haykallarini keltirishimiz mumkin.

Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi mumkin. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga hos bo'lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli ular uzok vaqt turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza, granit va betonlardan ishlanadi. Bulardan tashqari monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, ularda katta-katta, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi.⁴³

Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab Istirohat bog'lari, hiyobonlar, ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida mustaqil mazmuni anglatib me'morchilik va tevarak-atrofga bog'liq bo'lmagan holda kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarida obrazlar ko'tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida

⁴².J: Kepinov G. M., Texnologiya skulpturn, M., 1936;

⁴³Golubkina A. S., Neskolko slov o remesle skulptora, M., 1963



Bunda ko‘rishimiz munkinki o‘sha buyuk yozuvchi ijodkor Oybekning timsoli obrazi ifodalangan. O‘yga cho‘mgan lekin hayolida buyuk g‘oyalar mujassamlashgan.

Haykaltaroshlik asarlarida insonning faqat tashqi ko‘rinishi, tinch turgan holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan kifoyalanmay, undagi ichki kechinmalar, his-hayajon va g‘amginlik, kelajakka intilish kabi holatlar ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati, qalbidagi iztirob ishonarli talqin etiladi. Bunda, albatta, eng avvalo haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, tasvirlash qoidalarini puxta egallaganligi odam gavdasi va mimik o‘zgarishlari borasida plastik anatomiya sohasidagi yuqori bilimlarga ega bo‘lishini taqazo etadi. To‘g‘ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat haykalni ta'sirli ifodalash uchun zamin yaratadi.



Bu rasmada ko‘rib turibmiki yozuvchilar hiyobonida o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy haykali juda viqorli tarzda tasvirlangan. Uni harakterini ochib berishga harakat qilgan. Хайкалтарош яратган образ асар қахрамонининг ички кечинмалари, хис-туйғулари, қалб туг‘енини ишонарли ифодаланган.

Jumladan, tasviriy san‘at, haykaltaroshlik sohasiga ham shu nuqtai nazardan diqqat-e‘tibor qaratilishi bejiz emas. yosh avlodni vatanga mexru sadoqat ruhida tarbiyalashda haykaltaroshlik san‘atining ham roli katta. Bunday asarlarning bog‘ va xiyobonlarda o‘rnatilishi O‘zbekiston tasviriy san‘atining yanada rivojlanishi, o‘lmas asarlarning tug‘ulishiga

zamin yaratibgina qolmay tobora gullab-yashnayotgan shaxrimiz ko'rkiga ko'rk bag'ishlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.J: Kepinov G. M., Texnologiya skulpturn, M., 1936;
- 2.Golubkina A. S., Neskolko slov o remesle skulptora, M., 1963
- 3.,Apuxtin O. K., Tasviriy san'at asoslari, T., 1967;
- 4.Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU 2004
5. Xalqaro amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. - 2017. - 10-2-son. - S. 344-347;URL: <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=11918> (kirish sanasi: 26.11.2022).